

## **«Beeline Music bilan tinglang va yuting» aksiyasining o'tkazish qoidalari**

«Beeline Music bilan tinglang va yuting» Aksiyasining o'tkazish Qoidalari (keyingi o'rnlarda «**Qoidalari**» deb yuritiladi) ushbu «Beeline Music bilan tinglang va yuting» Aksiyani (keyingi o'rnlarda «**Aksiya**» deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi, yutuqli o'yinning bosqichlarida ishtirok etish shartlari (keyingi o'rnlarda «**Yutuqli o'yin**» deb yuritiladi), shuningdek, sovrinlar, ularni o'yinining ma'lum bir bosqich g'oliblariga taqdim etish tartibi va shartlarini belgilaydi.

Ushbu Qoidalarda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

- **Abonent** – Operator bilan oldindan to'lov tizimi bo'yicha uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun shartnoma tuzgan jismoniy shaxs;
- **Abonent raqami** – Abonent uskunasini boshqa qurilmalar bilan aloqasi paytida telekommunikatsiya tarmoqlarida identifikasiya qilib, xizmat ko'rsatish uchun Abonentga shartnoma asosida ajratiladigan raqam;
- **Kompaniya/Operator** – “Beeline” savdo belgisi ostida uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi va Aksiya tashkilotchisi bo'lgan “Unitel” MChJ;
- **G'olib** – tasdiqlangan sovrinlardan birini yutib olgan Aksiya ishtirokchisi;
- **Ishtirokchi** – ushbu Aksiya qoidalariغا muvofiq Aksiyada qatnashish huquqiga ega bo'lgan Beeline Music llovasining foydalanuvchisi.
- **«Beeline Music» xizmati** – Abonentlarga real vaqt rejimida musiqa kontentidan foydalanish imkoniyatini beruvchi xizmat.
- **Kompaniyaning rasmiy sayti** - Kompaniyaning rasmiy veb-sayti: [www.beeline.uz](http://www.beeline.uz).
- **Kompaniyaning Instagramdagi rasmiy sahifasi** - Kompaniyaning Instagramdagi rasmiy sahifasi quyidagi manzil bo'yicha: [www.instagram.com/beelinemusicuz](http://www.instagram.com/beelinemusicuz).

### **Aksiyani o'tkazish muddati:**

Aksiyaning boshlanish sanasi: 04.03.2024y.

Aksiyaning tugash sanasi: 10.04.2024y.

O'yinlar ushbu Qoidalarning 3.2.4-bandga muvofiq ravishda har hafta o'tkaziladi.

**Aksianing amal qilish hududi:** O'zbekiston Respublikasi

**G'oliblarni aniqlash joyi:** Kompaniyaning Instagramdagi rasmiy sahifada jonli efirida.

**G'oliblarni taqdirlash joyi:** O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., 100047, Buxoro k. 1-uy, shuningdek, Operatorning O'zbekiston Respublikasidagi barcha rasmiy ofislarda.

### **I. Aksiya ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar**

1.1. Yutuqli o'yinda ishtirok etish uchun quyidagi talablarga javob beradigan Kompaniya abonentlari ishtirok etishlari mumkin:

- Abonent - 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs hisoblanadi;
- Abonent aksiya davrida «Beeline Music» faol foydalanuvchisi bo'lishi kerak.

1.2. Quyidagilar Aksiyada ishtirok etish va/yoki sovrinni olish huquqiga ega bo'lmaydilar:

- Ushbu Qoidalarning 1.1-bandining talablariga javob bermaydigan foydalanuvchilar;
- Aksiya muddati davomida Kompaniya bilan mehnat munosabatlarda bo'lgan shaxslar, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;
- Aksiya o'tkazilishi davrida Operatorning affilangan shaxslari bilan mehnat munosabatlarda bo'lgan shaxslar, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari,
- Kompaniyaning ishonchli vakilining xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari, ishonchli vakilning (dillerlar) o'zi Aksiyada ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

## **II. Sovrin jamg'armasi**

### **2.1 Aksiyaning sovrin jamg'armasi:**

- Apple AirPods (uchinchi avlod) 5 (besh) dona.

2.2. Sovrinni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq G'olib nomiga rasmiylashtiriladi, bunda Kompaniya soliqlarni qoplaydi, qolgan harajatlar G'olib tomonidan qoplanadi.

## **III. Aksiyada ishtirok etish va uni o'tkazish shartlari**

3.1. Quyidagilar Aksiya ishtirokchilari hisoblanishadi:

- «Beeline Music» xizmatida faol obunasi bo'lgan, kamida 10 soniya davomida istalgan qo'shiqni tinglagan.

3.2. Aksiya quyidagi tartibda o'tkaziladi:

3.2.1. Abonent o'zining Abonent raqamidan foydalangan holda «Beeline Music» xizmatiga ulanishi kerak.

3.2.2. Abonent «Beeline Music» xizmatida kamida 10 soniya davomida istalgan musiqiy kompozitsiyani tinglashi kerak.

3.2.3. G'oliblar ushbu Qoidaning 3.2.6-bandiga muvofiq Kompaniyaning Instagram rasmiy sahifasining jonli efirida (keyingi o'rinnlarda «**Jonli efir**» deb yuritiladi) random.org veb-sayti orqali tasodifiy raqamlar algoritmi yordamida ommaviy ravishda aniqlanadi. G'oliblarni aniqlash uchun foydalaniladigan tasodifiy raqamlarni yaratuvchi random.org veb-saytida Yutuqli o'yin boshlanishidan oldin G'oliblarni oldindan belgilab beradigan tartiblar yoki algoritmlar mavjud emas.

3.2.4. Yutiqli o'yin quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

<b>Yutuqli o'yin bosqichlari</b>	<b>Jonli efir sanasi</b>
04.03.2024 y. – 10.03.2024 y.	13.03.2024 y.
11.03.2024 y. – 17.03.2024 y.	20.03.2024 y.
18.03.2024 r. – 24.03.2024 y.	27.03.2024 y.
25.03.2024 r. – 31.03.2024 y.	03.04.2024 y.
01.04.2024 r. – 07.04.2024 y.	10.04.2024 y.

3.2.5. Yutuqli o'yin bosqich G'olibi to'g'risidagi ma'lumotlar G'olibning raqamini ko'rsatgan holda (abonent raqamining dastlabki uch raqamisiz) Yutuqli o'yinning tegishli bosqich natijalari sarhisob qilingan va G'olib aniqlangan ertasi kuni Kompaniyaning rasmiy resurslarida e'lon qilinadi, bular Kompaniyaning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar Facebook, Kompaniyaning rasmiy Instagram rasmiy sahifasi va Operatorning Telegram sahifasi.

3.3. Kompaniya Aksiya Ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarni o'tkazmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, agarda ushbu shartlarda yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablari asosida ko'rsatilmagan bo'lsa.

3.4. Kompaniya Aksiya qoidalariiga tegishli ma'lumotlarni Kompaniyaning Rasmiy veb-saytida majburiy joylashtirish sharti bilan ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.5. Kompaniya istalgan vaqt Aksiyani to'xtatish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.6. Aksiya haqida ma'lumot Kompaniyaning Rasmiy saytida mavjud. Kompaniya o'zining xohishiga ko'ra Kompaniyaning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar Facebook, Kompaniyaning rasmiy Instagram rasmiy sahifasi va Operatorning Telegram sahifasida Aksiyaga tegishli ma'lumotlarni joylashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

## IV. Sovrirlarni olish shartlari

4.1. Sovrinni olish uchun Aksiya doirasidagi o'yin G'olibi deb topilgan Ishtirokchi 7 (yetti) kalendar kun ichida Operatorga quyidagi hujjatlarning asl nusxasini va ma'lumotlarni taqdim etadi:

- G'olibning pasporti yoki ID kartasi;
- Soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasida JShShIR raqami bo'Imagan holatlar uchun tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limidan (pasport bo'limi) JShShIR ni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma;
- G'olib chet el fuqarosi bo'lsa, yashash joyini tasdiqlovchi O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasidan sertifikat.

4.1.1. Agar G'olib biron-bir sababga ko'ra Sovrinni topshirish jarayonida shaxsan ishtirok eta olmasa, Sovrinni olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida ishtirok etish uchun boshqa shaxsga (ishonchli vakilga) tegishli ishonchnoma rasmiylashtirib berishi mumkin.

Bu holda, ishonchli vakil quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- G'olibning pasporti yoki ID kartasidan nusxa;
- sovrinni olish va sovrinni G'olib nomiga rasmiylashtirish bilan bog'liq hujjatlarni imzolash huquqini beruvchi notarial tasdiqlangan ishonchnoma;
- Ishonchli vakilning pasporti yoki ID kartasi;
- Soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasida JShShIR raqami bo'Imagan holatlar uchun tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limidan (pasport bo'limi) JShShIR ni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma;
- Chet el fuqarosi bo'lsa, yashash joyini tasdiqlovchi O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasidan sertifikat.

4.2. Sovrirlarni taqdim etish tartibi:

4.2.1. Kompaniya ushbu Qoidalarning 4.1-bandiga muvofiq sovrirlarni G'olib tomonidan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida berish huquqini o'zida saqlab qoladi.

4.2.2. Kompaniya, sovrirlarni G'oliblarga topshirishda soliqlarni (shu jumladan, jismoniy shaxslarning mukofot qiymatidan daromad solig'i) va yig'imlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda mustaqil ravishda to'laydi.

4.2.3. Sovrinni rasmiylashtirishda va olib ketish jarayonida G'olib barcha kerakli hujjatlarni shu jumladan G'olibning shaxsiy ma'lumoti, sovrinining QQS bilan ko'rsatigan narxi va boshqa to'liq ma'lumot ko'rsatilgan barcha kerakli hujjatlarga imzo qo'yishi kerak.

4.2.4. Sovrin G'olibga barcha kerakli hujjatlar imzolanganidan so'ng topshiriladi.

4.2.5. Agar g'olib Toshkent shahrida yashamasa, Kompaniya Sovrinni G'olibning yashash joyiga yaqinroq bo'lgan Kompaniyaning rasmiy ofisiga yetkazish majburiyatini oladi. Kompaniya g'olibning Toshkent shahriga borishi va qaytishi, uning mehmonxonada yashashi va ovqatlanishi bilan bog'liq har qanday xarajatlarni, shuningdek, sayohat bilan bog'liq boshqa barcha xarajatlarni to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi.

4.2.6. Kompaniya quyidagi holatlarda G'olibga Sovrinni berishdan bosh tortish huquqiga ega:

- G'olib Sovrin e'lom qilingan kundan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida Kompaniya bilan bog'lanmaganda;
- G'olib Sovrin e'lom qilingan paytdan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida 4.1-bandda ko'rsatilgan kerakli hujjatlarni taqdim etmagan va/yoki taqdim etilgan hujjatlar Aksiya va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga javob bermaganda;
- G'olib o'z imzosini qo'yishdan va/yoki boshqa qonuniy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlardan, shu jumladan, zarur hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortganda;
- G'olibni sovrin yutganligi to'g'risida xabar qilishning imkoniyati bo'lmaganida - g'olibning raqami bloklangan, tarmoqdan tashqarida, Kompaniyaga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra g'olib telefonni ko'tarmagan va/yoki aloqaga chiqmagan holatlarda;
- G'olib tomonidan Aksiyada ishtirok etish shartlari buzilishi aniqlanganda.

4.2.7. Aksiya doirasidagi sovrinni pul ekvivalentiga almashtirish nazarda tutilmagan.

## **V. Alovida qo'shimchalar.**

5.1. Agar G'oliblar biron-bir sababga ko'ra sovrinlarga da'vo qilmasa yoki olishdan bosh tortsa, talab qilinmagan sovrin Kompaniyaning mulki bo'lib qoladi. Bunday holda, o'ynalmagan sovrin keyingi Aksiyalar vaqtida qayta o'ynaladi.

5.2. Agar G'olib ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha talab va shartlarga riosa qilmasa, Kompaniya G'olibga sovrinni taqdim etishni rad etishga haqli.

5.3. Kompaniya quyidagi holatlar uchun javobgar emas:

- Ishtirokchilar G'oliblar ro'yxati bilan Kompaniyaning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar Facebook, Kompaniyaning rasmiy Instagram rasmiy sahifasi va Operatorning Telegram orqali tanishish imkoniyati bo'lmaganida;

- Sovrirlarni olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar/hujjalarni ishtirokchilarning aybi bilan yoki boshqa sabablarga ko'ra topshirilmagan/o'z vaqtida topshirilmaganida;
- Aksiya shartlarida ko'zda tutilgan talablarni ishtirokchilar tomonidan bajarilmaganida (o'z vaqtida bajarilmaganida);
- G'oliblar sovrirlarga da'vo qilmagan yoki rad etganligi uchun olmaganlarida;
- Uchinchi shaxslarning aybi va/yoki fors-major holatlari tufayli G'oliblarga sovrirlarni topshirish bo'yicha majburiyatlarni bajarishning imkonini bo'lmagan holatlarida.

#### 5.4. Aksiyada ishtirok etish bilan Ishtirokchi:

- Aksiya shartlari bilan to'liq tanishligini tasdiqlaydi va rozi bo'ladi;
- foto-video tasvirga olishda qatnashishga va ijtimoiy tarmoqlarda suratini e'lon qilishga roziliginini tasdiqlaydi;
- Kompaniya tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlashga roziliginini tasdiqlaydi.

5.5. Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi kerak. Agar nizo kelib chiqqan kundan boshlab 60 (oltmish) kalendar kuni ichida tinch yo'l bilan kelishuvga erishishning imkonini bo'lmasa, nizo O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudida ko'rib chiqilishi kerak.

5.6. Sovrinda nuqsonlar yoki boshqa zavod nosozliklari aniqlangan taqdirda, G'olib mukofot topshirilgan va G'olib o'tkazmani qabul qilish dalolatnomasini imzolagan paytdan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida Kompaniyaning bosh ofisiga murojaat qilishi zarur. G'olibning yutuq uchun belgilangan foydalanish yoki saqlash qoidalarini buzishi yoki uchinchi shaxslarning harakatlari yoki fors-major holatlari tufayli yutuq G'olibga topshirilgandan keyin yuzaga kelgan kamchiliklar uchun Kompaniya javobgar bo'lmaydi.